



## ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLER VA ULARNING QO'LLANISH MAQSADI , USLUBLARI

*CHDPI Gumanitar fanlar fakulteti CHDPI*

*Gumanitar fanlar fakulteti*

*2-bosqich talabasi*

**Karomatov Akbar Abramat o'g'li**

*2-bosqich talabasi*

**Ibraimova Jayna Kumusbek qizi**

*Ilmiy rahbar f.f.n,dotsent*

**T.SABITOVA**

**Annotatsiya:** Buyuk ijodkor, hikoyanavis Abdulla Qahhor asarlarida qo'llanilgan frazeologik birliklarning qo'llanish maqsadi va ularning hikoyadagi vazifalari. Qo'llanilgan xalq og'zaki ijodi namunalarining hikoyalardagi ahamiyati. Adib ijodida xalq donishmandligining ahamiyati haqida.


**Tayanch so'zlar:** Xalq og'zaki ijodi, frazeologik birliklar, maqollar, iboralar,"Asqarponsot", iyerarxiya, obrazik boyitish.

So'z qo'llash mahoratining zakiy ustasi, xalq og'zaki ijodining bilimdoni va XX asr o'zbek adabiyotining ulkan adibi Abdulla Qahhordir. Adib o'z nasriy asarlarida puxta fikr va g'oyalarni syujetlarag o'ragan holda kitobxonlarga yetkazar ekan. Ular bir-biriga mosligi kishini hayratga soladi. Nosir asarlaridagi ko'tarinki kayfiyat esa albatta, kitobxонни о'зига rom etadi. Shu bilan birga hikoya qahramonlarining suhbat va o'ylarini bayon etishda xalq og'zaki ijodi namunalarining keltirilishi esa, asar qahramonlarning bilimdon va zukkoligidan darak beradi. Qahramonlar tilidan maqol, ibora, hikmatli so'zlar keltirar ekan, hikoya dunyosi rangbaranglashib qahramonlarning ichki dunyosi haqida chuqurroq bilishga imkon yaratadi. Bu esa kitobxon uchun anchayin zarurdir. A.Qahhor asarlaridagi xalq donishmandligi namunalari ba'zi hollarda hikoya yutug'ining asosini ham tashkil etadi. Bunga misol sifatida "Daxshat" hikoyasini olaylik, hikoya tuguni shakillanishi uchun qo'llanilgan "Asqarponsotning go'rige pichoq sanchib kelish" haqidagi voqeа tilga olinadi. Bu voqeа va Dodxoh o'ylari hikoyaning asosiy qismiga o'tishdagi kitobxon o'ylarini bir nuqtaga jamlasa, so'ng Unsin kitobxонни о'зи bilan birga qumg'on ko'tarib mozoristonga olib ketadi. Kitobxon "Asqarponsotning go'rige pichoq sanchib kelish" voqeasini o'qir ekan xalq orasida yuruvchi turli cho'pchaklarni eshitgani uchun ham qo'rquvni tuyadi. So'ngra esa kitobxon Unsinning o'zini dadilroq tutish uchun aytgan so'zlari va yer o'prilib oyog'ining botib ketishi bilan haqiyqiy qo'rquv ichida qoladi. Shu vaqtida esa bizning Zakiy adibimiz kitobxонни cho'chitadi, ya'ni Dodxohnning maymunini qo'yib yuboradi. Bundan so'ngi voqealar esa kulminatsiyadan yechim tomon og'riq kirgan qo'lida qumg'on ko'tarib Dodxohnning uyi tomon sudrala boshlaydi. Umumiyl fikr



sifatida esa, albatta, xalq ijodining namunasi hikoya uchun katta manba bo'lganligini aytolamiz.

XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakili A.Qahhor o'z asarlarida so'zlarni qo'llashda katta mahoratga ega bo'lishi bilan bir qatorda asar syujetlariga mos va xos ravishda ona xalqimizning tiganmas xazinasi bo'lmish maqol, matall va ibora kabi turlarini ham ustalik bilan qo'llagan va ularning ba'zilari xususida ham qalam yuritgan . bundan ham ko'rinish turibdiki A.Qahhor xalq og'zaki ijodining bilimdoni va shaydosi bo'lgan. A.Qahhor ba'zi xalq og'zaki ijodi na'munalarini asos qilib uning atrofini syujetlar bilan boyitib ularning kelib chiqishiga o'z qarashlarini berib o'tadi. Ba'zilarini obrazik boyitgan holda, ularni qo'llash doiralarini kengaytirishga xizmat qilgan. Maqol va iboralarning aniq nuqtalarda mahorat bilan qo'llanilishi va uning yuqori ma'noviy jo'yalik hosil qilishi A.Qahhor ijodiga zeb va uning xalq og'zaki ijodining kuchli bilimdoni ekanligiga asosdir . bu ko'rinishdagi asarlardan biri ertak hisoblanuvchi "Pora"dir . Unda xalq og'zaki ijodi na'munasi hisoblangan "Falonchiga pora deb bersang tirik kirpini teskari yutadi"(1,206-bet. Foydalilanigan adabiyotlarga qaralsin) iborasi ertakning asosi bo'lib xizmat qilgan va asarning syujeti uning atrofida to'plangan. Abdulla Qahhorning hikoyalarida maqollarning uchrashida muayyan maqsad yotadi. Adibning "O'g'ri" hikoyasida qo'llanilgan maqollar maqsadiga e'tibor berilsa ular muayyan maqsad bajaradi. Hikoyada har bir mansabdorga nisbatan qo'llanilgan maqollar mansabdorlar haqida kitobxonga to'liq tasavvur yaratadi. Hikoya davomida esa Qobil boboning yulg'uchlar jamiyatidagi achchiq qismati ochib beriladi. Hikoyada ellikboshiga qo'llanilgan "Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi", (2,175-bet) maqolining qo'llanilishiga e'tibor berilsa beziz qo'llanmaganligi hikoya davomida ayon bo'ladi. Shu bilan birga ellikboshiga nisbatan qo'llanilgan " Bu odam ellikboshi bo'lish uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir o'ziga yetti yuz bog' beda, bir toy bergani ma'lum" (3, 175-bet). so'zlar ellikboshining ahvolini ayon qiladi. Abdulla Qahhor esa shu sababdan ellikboshini ustalik bilan "Burunsiz ellikboshi" deya munosib ta'rif beradi. Hikoya davomida esa Qobil boboning aminga ham murojati uchraydi. Aminga nisbatan qo'llanilgan "Quruq qoshiq og'iz yirtadi", "Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz"(4,175-bet) maqollarda albatta, amin ham ellikboshidan qolishmasligi, ortiq darajada bo'lsa ham undan qolishmasligi tariflanadi. Bu iyerarxik tuzumda poraxo'rlik shu darajada avj olgan ediki Qobil boboning pristavga qo'llagan "Begin deguncha kishining beli sinar ekan" iborasi bunga yaqqol isbotdir. Maqollarning qo'llanilgan o'rniga etibor bersangiz ularning har biri ma'lum bir mansabdorning qiyofasini ochib beradi. Maqollar va iboralarning mana shunday aniq va lo'nda fikr ifodalashi hikoyaga joziba, ixchamlik va tugal, butun ruh yaratgan. Abdulla Qahhor asarlarida biror ibora yoki maqolni qo'llar akan albatta, u muayyan qahramon ichki dunyosi uchun yoki qahramon diologi aniqliligi uchun qo'llaniladi. Adib asarlarining qahramonlari shunisi bilan ahamiyatlichi ularning nutqida albatta, xalq o'zaki ijodi namunalari uchraydi. Bu esa har bir kitobxonni aniq fikr va xulosalarga kelishi bilan birga, xalq og'zaki ijodining bu nodir manbalariga oshno





qiladi. Shu bilan birga ba'zi xalq og'zaki ijodi namunalarini jamiyat ichida qayta jonlantirish ya'ni ularni syujetlar orqali boyitish albatta, xalq og'zaki ijodining yangilanishi va boyishidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.“O'tmishdan ertaklar” qissa va hikoyalar , YANGI ASR AVLODI 2019 .
- 2.“O'tmishdan ertaklar” qissa va hikoyalar , YANGI ASR AVLODI 2019 .
3. “O'tmishdan ertaklar” qissa va hikoyalar , YANGI ASR AVLODI 2019 .
4. “O'tmishdan ertaklar” qissa va hikoyalar , YANGI ASR AVLODI 2019 .

